

30-Aprel, 2026-yil

**KRIPTOVALYUTALAR VA BLOKCHEYNNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH: MARKAZLASHMAGAN MOLIYA TIZIMIDA FIRIBGARLIK DAN
HIMOYALANISH CHORALARI**

Husan Nomozov

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrası o‘qituvchisi

Xushboqov Umidbek

TerDU, Yurisprudensiya ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar asosida shakllangan markazlashmagan moliya (DeFi) tizimi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu tizim oraliq vositachilarsiz tez va arzon operatsiyalarni ta’minlasa-da, uning markaziy nazoratning yo‘qligi va anonimlik xususiyati firibgarlikning yangi shakllarini, smart-kontrakt zaifliklaridan foydalanish, rug pull sxemalari, phishing hujumlari va pul yuvishni kuchaytirmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining kriptο-aktivlar sohasidagi milliy qonunchiligi chuqur tahlil qilinadi va Yevropa Ittifoqining MiCA reglamenti hamda FATF tavsiyalari bilan solishtiriladi. Tadqiqot natijasida DeFi muhitida firibgarlikdan himoyalanişning huquqiy mexanizmlari, mavjud bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqola O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beiladi.*

Kalit so‘zlar: *kriptovalyuta, blokcheyn, DeFi, firibgarlik, smart-kontrakt, kriptο-aktivlar, pul yuvishga qarshi kurash, O‘zbekiston Jinoyat kodeksi, MiCA, FATF Travel Rule, rug pull sxemalari, phishing hujumlari.*

Raqamli texnologiyalar rivoji moliya sohasini tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy bank tizimidan farqli o‘laroq, blokcheyn asosidagi markazlashmagan moliya (Decentralized Finance - DeFi) platformalari foydalanuvchilarga oraliq vositachilarsiz kredit olish, savdo qilish, likvidlik ta’minlash va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Bu jarayon tezlik, ochiqlik va xarajatlarning pasayishi jihatidan katta qulaylik yaratadi. Biroq markazlashmagan tizimning asosiy xususiyati, markaziy nazoratning yo‘qligi va ishtirokchilarning yuqori anonimligi - firibgarlik uchun keng maydon ochib bermoqda.

DeFi muhitida smart-kontraktlarning kod zaifliklaridan foydalanib millionlab dollarlik mablag‘larni o‘g‘irlash, loyihalarni to‘satdan yopib investor pullarini olib qochish (rug pull), phishing hujumlari va ponzi sxemalari (bu firibgarlikning klassik turi bo‘lib, unda eski investorlarga va‘da qilingan yuqori daromad yangi investorlarning pullari hisobidan to‘lanadi) kabi jinoyatlar keng tarqalgan. Masalan, 2025-yilning birinchi choragida DeFi va CeFi platformalarida jami 2 milliard dollardan ortiq zarar qayd etilgan bo‘lib, eng katta yo‘qotishlar Ethereum tarmog‘ida kuzatilgan. Bunday holatlar nafaqat individual

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

foydalanuvchilarga, balki butun raqamli iqtisodiyotning ishonchliligiga jiddiy tahdid solmoqda¹²⁸.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida kriptο-aktivlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha izchil siyosat yuritmoqda. 2018-yil 3-iyuldagi Prezidentning PQ-3832-son qarori bilan kriptο-aktivlar huquqiy maqomi tan olingan bo‘lib, ular mulkiy huquq ob‘ekti sifatida belgilangan. 2024-yilda Jinoyat kodeksiga 278⁸ va 278⁹-moddalar kiritilib, kriptο-sohasidagi qonunbuzarliklar uchun maxsus javobgarlik o‘rnatildi. 2025-yilda kriptο-aktivlar rasmiy aylanmasi 2 milliard dollardan oshgan, 2026-yildan esa stablecoinlar orqali to‘lovlar joriy etilishi va maxsus mayning zonalarini (jumladan, Buxoro viloyatida NexaGrid kompaniyasiga birinchi litsenziya berilgani) faoliyat boshlagan¹²⁹.

Shu bilan birga, markazlashmagan moliya tizimida firibgarlikdan samarali himoyalash masalasi hali to‘liq hal etilmagan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi, kriptοvalyutalar va blokcheynni huquqiy tartibga solishning hozirgi holatini O‘zbekiston milliy qonunchiligi asosida chuqur tahlil qilish, DeFi muhitidagi firibgarlik xavflarini ochib berish va xalqaro tajribani hisobga olgan holda himoya choralari bo‘yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullariga asoslanadi.

O‘zbekiston qonunchiligida kriptο-aktivlarning huquqiy asosi Prezidentning 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan qo‘yilgan¹³⁰. Ushbu hujjatda kriptο-aktivlar “kriptοgrafik usullar bilan yaratilgan va taqsimlangan reyestrda qayd etilgan raqamli birliklar” deb ta‘riflanib, ular mulkiy huquq sifatida tan olingan. Qaror kriptο-aktivlar aylanmasini tartibga solish, litsenziyalash va nazoratni kuchaytirish vazifalarini belgilaydi.

2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-899-son Qonun bilan Jinoyat kodeksiga ikkita muhim modda kiritildi. 278⁸-modda kriptο-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlashni, litsenziyasiz kriptο-xizmatlar ko‘rsatishni va anonim operatsiyalarni amalga oshirishni jinoiy javobgarlikka tortadi¹³¹. Ushbu moddaning birinchi qismi ma‘muriy javobgarlikdan keyin sodir etilgan harakatlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha jarima yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutsa, ikkinchi va uchinchi qismlarida takroriy, guruhiy yoki juda ko‘p miqdordagi holatlar uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. 278⁹-modda esa mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish uchun javobgarlikni o‘rnatadi.

¹²⁸ <https://de.fi/blog/de-fi-rekt-report-q1-2025-over-2-billion-lost-in-defi-and-cefi-exploits>

¹²⁹ <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-issues-first-legal-cryptocurrency-mining-license/>

¹³⁰ <https://lex.uz/docs/-3806053?ONDATE=28.04.2022>

¹³¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6763724>

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

Fuqarolik kodeksida raqamli aktivlar mulkiy huquqlar doirasida ko‘rib chiqilmoqda va yangi tahrir loyihalarida ularni oldi-sotdi ob‘ekti sifatida aniq belgilash nazarda tutilgan. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) kripto-xizmat ko‘rsatuvchilarni litsenziyalash va nazorat qilish vakolatiga ega. 2026-yilda Buxoro viloyatida NexaGrid kompaniyasiga birinchi mayning litsenziyasi berilgani va stablecoinlar orqali to‘lovlarni joriy etish rejalashtirilgani bu yo‘nalishdagi amaliy qadamlardir.

Xalqaro huquqiy tajribada Yevropa Ittifoqining Markets in Crypto-Assets (MiCA) reglamenti eng muhim hujjat hisoblanadi. MiCA kripto-aktivlar emissiyasi, savdosi va xizmat ko‘rsatuvchilar (CASP) uchun yagona qoidalarni o‘rnatadi. U shaffoflik, litsenziyalash, kapital talablari va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlaydi. MiCA 2024-yil oxiridan to‘liq qo‘llanila boshlagan bo‘lib, u oldingi parchalangan milliy tartibga solish o‘rniga butun Yevropa Ittifoqi bo‘ylab yagona standart yaratadi¹³².

Moliyaviy harakatlar bo‘yicha maxsus guruh (FATF) tavsiyalari esa virtual aktivlar bilan bog‘liq pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda asosiy rol o‘ynaydi. Xususan, Travel Rule (Recommendation 16) har bir kripto-tranzaksiyada jo‘natuvchi va oluvchi haqidagi ma‘lumotlar uzatilishini talab qiladi. 2025-yil holatiga ko‘ra, 85 dan ortiq yurisdiksiya Travel Rule ni qonunchilikka kiritgan, ammo amaliyotda uning to‘liq qo‘llanilishi hali yetarli emas¹³³.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy usul, normativ talqin va tizimli tahlil qo‘llanildi. Lex.uz bazasi, Prezident qarorlari, Jinoyat kodeksi, MiCA reglamenti, FATF hujjatlari va ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi. Har bir norma o‘zining huquqiy asoslari va amaliy qo‘llanilishi bilan sharhlandi.

O‘zbekiston qonunchiligi kripto-aktivlar sohasini rivojlantirishga nisbatan ijobiy yondashuvni namoyon etmoqda. PQ-3832-son qarori kripto-aktivlarni mulkiy huquq sifatida tan olib, ularning aylanmasini tartibga solishning huquqiy asosini yaratdi. 2025-yilda rasmiy aylanma hajmi 2 milliard dollardan oshgani bu siyosatning samarasini ko‘rsatadi. 2026-yildan boshlab stablecoinlar orqali to‘lovlar joriy etilishi va maxsus mayning zonalarini faoliyatini kengaytirish raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq markazlashmagan moliya platformalarida firibgarlikdan himoyalaniş masalasida jiddiy kamchiliklar saqlanib qolmoqda. DeFi tizimlarining markazlashmaganligi ularni an‘anaviy litsenziyalash va nazorat mexanizmlari bilan to‘liq qamrab olishni qiyinlashtiradi. Smart-kontraktning texnik zaifliklari (masalan, reentrancy hujumlari (bu bir smart-kontrakt boshqa kontraktga pul o‘tkazayotganda, pul hali to‘liq o‘tkazilmaguncha (hisobdan chiqarilmaguncha) hujumchi kontraktning o‘z funksiyasini qayta-qayta chaqirib, bir xil pulni bir necha marta o‘g‘irlashidir)) yoki loyihalarni to‘satdan yopib qochish

¹³² <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32023R1114>

¹³³ <https://www.fatf-gafi.org/content/dam/fatf-gafi/recommendations/2025-Targeted-Upate-VA-VASPs.pdf.coredownload.pdf>

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

holatlari katta moliyaviy zarar keltirmoqda. Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) umumiy holatlarda qo‘llaniladi, ammo kripto-sohasidagi maxsus holatlar uchun 278⁸-modda joriy etilgan. Ushbu modda litsenziyasiz faoliyat, anonim operatsiyalar va qonunchilikni buzishni jazolaydi, lekin dalillarni texnik jihatdan yig‘ish va xalqaro hamkorliksiz jinoyatchini javobgarlikka tortish murakkabligicha qolmoqda.

Xalqaro tajribada MiCA reglamenti kripto-asset xizmat ko‘rsatuvchilarni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish, shaffoflik talablarini o‘rnatish va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini joriy etgan. FATFning Travel Rule talabi esa tranzaksiyalarda ma‘lumotlar uzatilishini ta‘minlab, pul yuvish xavfini kamaytirishga qaratilgan. O‘zbekistonda esa bu mexanizmlar hali to‘liq rivojlanmagan, natijada fuqarolar DeFi platformalarida firibgarlik qurboniga aylanish holatlari ko‘paymoqda.

Markazlashmagan moliya tizimining asosiy xavfi shundaki, u markaziy nazoratni rad etadi, ammo bu huquqiy bo‘shliqni yaratadi. O‘zbekiston qonunchiligi kripto-aktivlarni mulkiy huquq sifatida tan olgan bo‘lsa-da, DeFi muhitidagi firibgarlikning o‘ziga xos shakllarini (smart-kontrakt ekspluatatsiyasi, anonim hamyonlar orqali pul yuvish, rug pull) to‘liq qamrab olmaydi¹³⁴. Masalan, agar foydalanuvchi DeFi platformasida investitsiya qilib, loyiha egasi pullarni olib qochsa, bu holatni 278⁸-modda yoki umumiy firibgarlik moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin. Biroq texnik dalillarni isbotlash va xalqaro hamkorliksiz samarali javobgarlikni ta‘minlash qiyin.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun bir qator muammolar dolzarbdir. Birinchidan, smart-kontraktlarni oldindan majburiy audit qilish mexanizmining yo‘qligi texnik zaifliklarni oldini olishni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, KYC (Know Your Customer) va AML (Anti-Money Laundering) talablarining DeFi uchun yetarli emasligi anonim operatsiyalarni kuchaytiradi¹³⁵. Uchinchidan, raqamli dalillarni yig‘ish va sudda ishlatish tartibining takomillashtirilmaganligi tergov jarayonini sekinlashtiradi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur. Fuqarolik kodeksiga smart-kontraktlarni alohida huquqiy ob‘ekt sifatida kiritish va ularning huquqiy kuchini mustahkamlash lozim. “Raqamli aktivlar to‘g‘risida”gi maxsus qonun qabul qilib, unda DeFi platformalari uchun minimal shaffoflik talablarini o‘rnatish kerak. FATF va MiCA tajribasidan foydalanib, Travel Rule ni bosqichma-bosqich joriy etish investorlar ishonchini oshiradi. Nihoyat, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va huquq-tartibot organlari hamkorligida kripto-firibgarlikka qarshi maxsus monitoring tizimini yaratish zarur.

Bunday yondashuv nafaqat firibgarlikdan himoyalanishni kuchaytiradi, balki raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va investorlar ishonchining oshishiga xizmat qiladi.

¹³⁴ Yokubjonov M. “Crypto-assets and tokens: the need to fill gaps in the legislation of Uzbekistan” // Econferencia, 2026.

¹³⁵ <https://www.fatf-gafi.org/content/dam/fatf-gafi/recommendations/2025-Targeted-Update-VA-VASPs.pdf>

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

O‘zbekistonning hozirgi qonunchiligi ijobiy asos yaratgan bo‘lsa-da, xalqaro standartlarga to‘liq moslashish uchun qo‘shimcha huquqiy takomillashtirish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida, Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi O‘zbekiston uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Mamlakat 2018-yildan boshlab bu sohani tartibga solish bo‘yicha izchil siyosat yuritmoqda. Prezidentning PQ-3832-son qarori va Jinoyat kodeksiga kiritilgan 278⁸ va 278⁹-moddalar muayyan huquqiy asos yaratgan. 2025-yilda kripto-aktivlar aylanmasi 2 milliard dollardan oshgani va 2026-yilda maxsus mayning zonasi hamda stablecoin to‘lovlarining joriy etilishi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardir.

Biroq markazlashmagan moliya tizimida firibgarlik xavfi yuqori bo‘lib qolmoqda. DeFi muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq hisobga oluvchi maxsus mexanizmlar hali yetarli emas. Xalqaro standartlar (MiCA va FATF Travel Rule) bilan solishtirganda milliy qonunchilikni takomillashtirish, smart-kontrakt auditini majburiylashtirish, KYC/AML talablarini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Faqat shu yo‘l bilan kriptovalyutalar va blokcheyn sohasini xavfsiz rivojlantirish, fuqarolarni firibgarlikdan ishonchli himoya qilish va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining muvaffaqiyatini ta’minlash mumkin. Huquqiy tartibga solish nafaqat xavfsizlikni oshiradi, balki innovatsiyalarni rag‘batlantirib, mamlakat iqtisodiyotini raqamli transformatsiyaga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-son Qarori (03.07.2018).
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (278⁸ va 278⁹-moddalar, O‘RQ-899-son Qonun, 19.01.2024).
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
4. Markets in Crypto-Assets Regulation (MiCA), Yevropa Ittifoqi (Regulation (EU) 2023/1114).
5. FATF Recommendations on Virtual Assets and Travel Rule (2025 update).
6. Lex.uz rasmiy ma’lumotlar bazasi.
7. Ilmiy manbalar: Khudoyberdiyev N.A. va boshqalar (kripto-aktivlar bo‘yicha tadqiqotlar).